

ONA TILI DARSLARIDA SO'ZNING MORFEMIK TARKIBINI O'RGANISH METODIKASI

Kuziyeva Gulchehra Maxsudovna
*Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani
XTB ga qarashli 11-sonli umumiyl o'rta ta'lif
maktabining o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lif maktablari ona tili darslarida so'zning morfemik tarkibini o'rganish metodikasi xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ona tili darslari, so'zning morfemik tarkibi, morfema, metodika, so'z yasovchi qo'shimchalar.*

So'zning leksik ma'nosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda o'zining nazariy asosiga ega.

Morfema – so'zning eng kichik, bo'linmaydigan ma'noli qismi.

Morfema ikki turga bo'linadi; 1. O'zak morfema – so'zda albatta qatnashadigan va leksik ma'no anglatadigan morfema 2. Affiksal morfema – mustaqil holda leksik ma'no anglatmay, so'zning leksik va ma'nolarining shakllanishi xizmat qiladigan morfema.

Qo'shimchalar 2 turga bo'linadi:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar. So'zning leksik ma'nosini shakllantirish uchun xizmat qiladigan.

2. Forma yasovchi qo'shimchalar so'zlarning grammatik formalarini shakllantirib, turli grammatik ma'nolarini ifodalaydi.

So'zning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan o'quvchilar so'zning leksik ma'nosini aniqlashning asosiy usullarini bilib oladilar. Bunda o'qituvchining vazifasi bolalar so'zlarining leksik ma'nosini va morfemik tarkibi bir-biriga bog'liqligini bilib olish uchun eng qulay sharoit yaratish, shu asosda ularning lug'atiga aniqlik kiritishga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish hisoblanadi.

So'z morfemani rolini anglash, shuningdek qo'shimchalarning semantik ma'nosini bilish o'quvchilarda nutqning aniq shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar so'zning leksik ma'nosini tushunibgina qolmay, matnda aniq affiksli so'zlardan ongli foydalanishlarni oshirish hisoblanadi.

So'zning morfemik tarkibini o'rganish orfografik malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Morfologik tamoyil o'zbek orfografiyasining yetakchi tamoyili bo'lib, bunga binoan so'zlar va ularning tarkibiy qismi, (o'zak va qo'shimchalar) asliga muvofiq yoziladi. O'zak va qo'shimchalarni to'g'ri yozish malakasini nazariy asosda shakllantirish fonetik so'z yasalishiga oid, grammatik bilimlarni maqsadga muvofiq tatbiq etishni talab qiladi. Shuning uchun so'zning morfemik tarkibini o'rganishning muhim vazifalaridan biri o'zak va qo'shimchalarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar asosini yaratish hisoblanadi.

So'zning morfemik tarkibini o'rganish o'quvchilarning aqliy qobiliyatini o'stirishda, xususan, til birligi sifatida so'zni umumiy bilib olish uchun zarur bo'lgan maxsus aqliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatli. O'qituvchining vazifasi ta'lif jarayonida bilimni o'zlashtirish bilan o'quvchilarni aqliy faoliyatini o'stiradigan mavxumlashtirish, analiz, taqqoslash ko'nikmalarni shakllantiradigan sharoit yaratish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq, so'zning morfemik tarkibi 2-sinfda o'rganiladi. 3-sinfda so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Avvalo, til materialini o'rganish sistemasi nimaligi aniqlab olamiz. Til materialini o'rganish sistemasi deganda, ilmiy asoslangan izchillikkagi va o'zaro bog'lanishdagi bilimlar kompleksini o'zlashtirishni ta'minlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ko'zda tutiladi.

Mavzuni o'rganishda 4 bosqich amalga oshiriladi:

1-bosqich – so'z yasalishini o'rganishga tayyoragarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi – o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlarning ma'no va tuzilishiga ko'ra bog'lanishni tushunishga tayyorlash.

2-bosqich – bir xil o'zakli so'zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning asosiy o'quv vazifasi so'zlarning ma'nolari qismlari sifatida o'zak, so'z yasovchi va forma yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirish. "O'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllanitirish; bir xil o'zakli so'zlarda o'zakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi.

"O'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllantirish ularning ikki muhim belgisini, ya'ni mazmuniy va mazmuniy umumiylilikning (ma'nosida qandaydir umumiylilik borligini) va tuzilishiga ko'ra umumiylikni (umumiyligi o'zak mavjudligini) o'zlashtirishga ta'lif jarayonida sharoit yaratish lozim. Ta'lifning bu bosqichida o'quvchilarning morfema haqidagi bilimlarni yetarli emas, ularni bu tushunchalar bilan amaliy mashqlarni bajarish jarayonida endigma tanishtirilayapti. Shuning uchun o'qituvchi tarkibi va yasalish usuli o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lgan so'zlarni tanlaydi. Bu so'zlarni analiz va sintez qilishni boshqaradi, so'zlarning leksik ma'nosini bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni o'quvchilar bilib olishlarga doimiy g'amxo'rlik qiladi. 3-bosqich – o'zak, so'z yasovchi va forma yasovchi qo'shimchalarning xususiyatlari va tildagi rolini o'rganish metodikasi. Bu bosqichning o'quv vazifasiga "o'zak", "so'z yasovchi qo'shimcha", "forma yasovchi qo'shimcha" tushunchalarini shakllantirish, so'zning leksik ma'nosini bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanish haqidagi tasavvurlarni o'stirish, o'zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so'z yasovchi qo'shimchasi bor so'zlarni ongli ishlatish ko'nikmasini o'stirish kiradi. Bu bosqichning vazifasi bir-biri bilan ma'lum bog'lanishda hal qilinadi. Masalan, so'zda har bir morfemaning rolini o'zlashtirish asosida o'quvchilar so'zning leksik ma'nosini bilan uning morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni bilib oladilar. Bracha vazifalar bilan bog'liq holda, so'zlarning morfemik tarkibini hisobga olib, ulardan nutqda mumkin qadar aniq va ongli foydalanish vazifasi ham bajariladi.

O'zakni o'rganishning xususiyatlari. "O'zak" tushunchasini shakkantirishda o'quvchilar o'zak o'zakdosh so'zlarning umumiyligi qismi ekanini va u barcha bir xil o'zakli so'zlarning ma'nosidagi umumiyligini o'z ichiga olishi bilan tanishtiriladi.

So'z yasovchi qo'shimchaning roli bilan tanishtirish va shu asosda so'z yasovchi qo'shimchali so'zdan o'z nutqida ongli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hisoblanadi. O'quvchilar so'z yasovchi qo'shimcha yordamida yangi leksik ma'no tushunishi muhim ahamiyatga ega.

Forma yasovchi qo'shimchalarni o'rganish xususiyatlari. Har bir morfemaning lingistik mohiyatda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Forma yasovchi qo'shimchada grammatik funktsiya yetakchi hisoblanadi, bu bilan u so'z yasovchi qo'shimchadan farqlanadi.

4-bosqich – so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi ustida ishlash, (3-sinf). So'zning morfemik tarkibini o'rganish sistemasida bu bosqichning maqsadi so'z yasovchi qo'shimchaning so'z shaklini o'rganishdagi ahamiyati haqidagi bilimni chuqurlashtirish; o'quvchilarni ot, sifat, fe'llarning yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi. So'z turkumlarini o'rganish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga so'z turkumidan boshqasini yoki shu so'z yasovchi qo'shimcha yordamida bir so'z turkumidan boshqasini yoki shu so'z turkumining o'zini yashash mumkinligini tushuntiradi. Masalan, ot ko'proq boshqa bir otdan (baliqchi, ishchi; sinfdosh, sirdosh; bog'bon, oshpaz, kitobxon) shuningdek fe'lidan (elak, kurak, yutuq); sifat ko'proq otdan (suvsiz, suvli, suvsiz, o'tli, o'tsiz) shuningdek fe'lidan (maqtanchoq, o'tkir, sezgir).

Fe'llar otdan (ishla, gulla, gapir) sifatdan (oqla, yaxshila, eskir, qoray) yasaladi. O'quvchilarni so'z yasalishi xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o'qituvchi ularga muayyan bir yangi so'z qaysi so'zdan va qaysi forma yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Masalan, o'qituvchi chegara otini aytadi va chegarani qo'riqlaydigan kishini bildiradigan o'zakdosh ot tanlashni topshiradi (chegarachi). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: o'qituvchi so'zni va so'z yasovchi morfemani beradi. O'qituvchining vazifasi yangi so'zni to'g'ri yashash va leksik ma'nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, baliq so'zidan -chi qo'shimchasi yordamida yangi so'z yashash, (baliqchi), uning leksik ma'nosini tushuntirish qaysi so'z turkumi ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham o'quvchilar so'zni morfemik taxlil qiladilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini hosil bo'lgan so'z qaysi morfema yordamida, qaysi so'z turkumidan yasalganiga, qanday mashqlarda tilda mavjud bo'lgan so'zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibining o'zaro bog'liqligiga va biror so'z turkumiga xarakterli bo'lgan so'z yasalishi usuliga asoslaniladi.

Bunday mashq turlaridan ayrimlari:

1. O'zakdosh so'zlari bo'lgan matnni leksik-so'z yasalishi tomonidan taxlil qilish. Masalan, quyidagi kabi matn yozdiriladi:

Hovlimizda gulzor bor. Gulzorga har xil gul ekilgan. Ularni gulchi akam parvarish qiladi. Gullar chamandek ochiladi. O'qituvchi rahbarligida bir o'zakdosh so'zdan boshqasi qanday,

qaysi morfema yordamida yasalgani, u qaysi so'z turkumiga kirishi, qanday ma'no bildirishi aniqlanadi.

2. Leksik ma'nosi keng tushuntirilgan so'zni o'zakdosh so'z bilan almashtirish.

Topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zga o'zakdosh bo'lgan bir so'z toping. Uning qaysi turkumiga kirishini ayting va uni so'z tarkibiga ko'ra taxlil qiling.

Olma daraxti ko'p joy (olmazor). Paxta yetishtirish bilan shug'ullanadigan kishi (paxtakor).

O'quvchilar o'qituvchi yordamida shu so'z qaysi so'zdan va qanday qo'shimcha yordamida yasalganini aniqlaydilar.

3. Har xil so'z turkumiga kiradigan o'zakdosh so'zlardan qatnashtirib gap tuzish.

4. So'z yasashga doir vazifalar.

Oq, ish, so'zlardan –la, -chi qo'shimchalari yordamida yangi so'zlar yasang. Berilgan va siz yasagan so'zlar qaysi so'z turkumiga kirishini isbotlang.

Ish, paxta, kolxoz otlaridan o'zakdosh otlar yasang. So'zlarni tarkibiga ko'ra taxlil qiling. Fe'lidan ot yasash uchun qanday qo'shimchalardan foydalandingiz?

Bu vazifalar o'quvchilardan so'z yasalishi xususiyatlari, so'zlarning morfemik tarkibiga e'tibor berishni talab etadi va so'zning morfemik tarkibi shu so'zning muayyan bir so'z turkumiga oid ekani bilan bog'liqligini aniqlashga qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti // Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 5, 6, 8-9-betlar.

2.Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 21- 33 – betlar.

3.A.Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi, 1992.

4.G'ulomov. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992

5.www.referat.uz